

Besh muhim tashabbus, besh tashabbusda besh ezgu g'oya

“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasida ayol professor o'qituvchilari S.Kasmbetova, G. Axmedjanova, D. Abduraimova, M. Po'latovalar tomonidan 4-ITJdagi talaba qizlar bilan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Besh muhim tashabbus, besh tashabbusda besh ezgu g'oya” mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.



Suhbat mobaynida talaba qizlarga besh muhim tashabbusning mohiyati, maqsadi, yo'nalish bosqichlari haqida to'liq ma'lumot berildi. Mavzu bo'yicha talaba-qizlarning qiziqishlari so'raldi. Talaba-qizlarimizning hozirgi kunda bo'sh vaqtlarida nimalar bilan bandliklari va qaysi bir tashabbusning yo'nalishiga qiziqishlari haqida o'z fikrlarini bildirdilar. Qizlarimizning ko'pchiligi bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblarni o'qish, tikuvchilik hamda sportning ba'zi bir turlari bilan shug'ullanib kelayotganliklari haqida aytib o'tdilar.



Suhbat davomida talaba qizlarimiz tomonidan buyuk shoirlarimiz Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf ijodlariga mansub bo'lgan she'rlardan taqdim etildi. Davra suhbatini juda maroqli va mazmunga boy tarzda o'tildi.

TIQXMMI matbuot xizmati